



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## “ALLA - HAYOT VA O‘LIM FALSAFASI: OMON MATJON TALQINIDA”

**Raximova Musharraf Uktamovna**

Ma'mun universiteti, o'qituvchi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Alla – nafaqat beshik qo‘shig‘i yoki bolani uxlatish va ovutish vositasi ekanligi, balki, inson umrining ramzi sifatida o‘rganiladi. Maqolada shoir folklorshunos-ijodkor pozitsiyasida turib, nafaqat xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanadi, balki ularning inson ruhiyati va taqdiridagi o‘rnini tadqiq qiladi. Shoir mazkur afsonada o‘zbek, xususan, Xorazm folkloriga xos elementlarni qo‘llagan holda, insonning o‘zligini anglash muammosini chuqur tahlil qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Omon Matjon, “Haqqush qichqirig‘i”, alla, qo‘shiq, xalifa, retrospektiv, So‘fi Olloyor, “Sabotul-ojiziyn”, folklorizm, Asqad Muxtor, “Chinor”, o‘zbek she‘riyati, ramz.

## “АЛЛАХ — ФИЛОСОФИЯ ЖИЗНИ И СМЕРТИ: В ИНТЕРПРЕТАЦИИ АМОНА МАТЖОНА”

**Рахимова Мушарраф Уктамовна**

Университет Маъмун, преподаватель

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается тот факт, что Алла — это не только колыбельная или средство убаюкивания и утешения ребенка, но и символ человеческой жизни. В статье поэт, выступая в роли фольклориста-творца, не только использует примеры народного устного искусства, но и исследует их место в человеческой психике и судьбе. В этой легенде поэт глубоко анализирует проблему понимания человеческой идентичности, используя элементы, характерные для узбекского, в частности, хорезмского фольклора.

**Ключевые слова:** Омон Матжон, «Haqqush qaqiqi‘i», alla, песня, хальфа, ретроспектива, Суфи Оллоёр, «Sabotul-ojiziyn», фольклоризм, Аскад Мухтор, «Chinor», узбекская поэзия, символ.

## “ALLAH - THE PHILOSOPHY OF LIFE AND DEATH: IN THE INTERPRETATION OF AMON MATJON”

**Raximova Musharraf Uktamovna**

Ma'mun University, Lecturer

### **Abstract**

This article examines the fact that Alla is not only a lullaby or a means of lulling and comforting a child, but also a symbol of human life. In the article, the poet, standing in the position of a folklorist-creator, not only uses examples of folk oral art, but also explores their place in the human psyche and destiny. In this legend, the poet deeply analyzes the problem of understanding human identity, using elements characteristic of Uzbek, in particular, Khorezm folklore.

**Keywords:** Omon Matjon, “Haqqush qichqirig‘i”, alla, song, khalfa, retrospective, Sufi Olloyor, “Sabotul-ojiziyn”, folklorism, Asqad Mukhtor, “Chinor”, Uzbek poetry, symbol.

“Haqqush qichqirig‘i”dan o‘rin olgan “Alla” nomli asari bu boradagi eng muhim manbalardan biridir. Ushbu asar janr jihatidan sinkretik xarakterga ega: unda nasriy bayon, lirik kechinma va folklor namunalari (alla, qo‘shiq, xalfalar aytimi, lapar) uyg‘unlashgan. Shoir asarda folklorshunos-ijodkor pozitsiyasida turib, nafaqat xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanadi, balki ularning inson ruhiyati va taqdiridagi o‘rnini tadqiq qiladi.

An‘anaviy folklorshunoslikda alla — beshik qo‘shig‘i, bolani uxlatish va ovutish vositasi sifatida tasniflanadi. Jahon folklorshunosligi va madaniyatshunosligida “Alla” (inglizcha lullaby, ruscha kolьbelnaya) janri nafaqat poetik matn, balki etnosning ruhiy-emotsional xotirasini saqlovchi va uzatuvchi universal fenomen sifatida tadqiq etiladi. Omon Matjonning “Alla” liro-epik asarida ushbu janrga murojaat qilishi bejiz emas, chunki alla — insoniyat yaratgan ilk badiiy-kommunikativ vositalardan biridir. Zamonaviy qiyosiy adabiyotshunoslikda allalar bola shaxsiyatini shakllantiruvchi birlamchi omil sifatida baholanadi. F. Karimova ingliz va o‘zbek allalarini qiyosiy tahlil qilar ekan, quyidagi ilmiy xulosani ilgari suradi: “Allalar bola ongini o‘stirishda, nafosatini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bolaning

ruhi va tanasi uchun birlamchi zarurlardan biri bu emizish bo‘lsa, ikkinchisi sokin ohangli alla yordamida chayqatishdir. Allalar bolani tinchlantirishi bilan birga, ma‘naviy ozuqa ham beradi” [1; 7-b.].

Alla janrining funksional vazifalari jahon olimlari (Sara Greys, Xanako Fukuda, Alison Lyu Kreyton va boshqalar) tomonidan keng o‘rganilgan. Ularning fikricha, onaning qo‘shig‘i bola va tashqi olam o‘rtasidagi hissiy ko‘prikdir.

Omon Matjon ushbu umumbashariy qarashni milliy zaminga ko‘chiradi. Uning talqinida alla faqat bola uchun emas, balki onaning o‘zi uchun ham xotirani uyg‘otuvchi kuchga ega. Asarda Roziyaning alla aytib, o‘z bolaligini va Vatanini eslashi folklorning retrospektiv (o‘tmishga qaytaruvchi) funksiyasining badiiy ifodasidir.

Omon Matjon “Alla” asarida o‘zbek, xususan, Xorazm folkloriga xos elementlarni qo‘llagan holda, umuminsoniy qadriyatlarni himoya qiladi. Omon Matjonning “Alla”si milliy chegaralardan chiqib, insonning o‘zligini anglash muammosini ko‘targan asaridir.

Shoir allani quyidagicha ta‘riflaydi: “Allada biz hatto xayolimizga keltirmagan boshqa bir mo‘jiza, muqaddas qudrat bor!” (HQ, 22). Bu ta‘rif allaning jahon xalqlari og‘zaki ijodidagi sakral (muqaddas) maqomiga to‘liq mos keladi. Lekin Omon Matjon bu janrga mutlaqo yangi mazmun yuklaydi. Asarda Roziya ismli qizning onasi bilan xayrlashuvi va onaning g‘alati iltimosi (“Bola ko‘rsang, hech biriga alla aytm! Aytsang, men rozi emasman...”) orqali kuchli dramatik tugun yaratiladi. Bu badiiy to‘qima (konflikt) orqali shoir muhim ilmiy-falsafiy g‘oyani ilgari suradi: alla — bu faqat ovoz emas, u ona va bola o‘rtasidagi ruhiy zanjir, Vatan bilan insonni bog‘lovchi ko‘rinmas rishtadir. Shoirning “Alla — onadan o‘tgan meros emas, bizga u — onalarimizga ham katta ona bo‘lgan ona tuproqdan kelayotgan sado!” (HQ, 28) so‘zlari Roziyaning farzandlari taqdiri misolida ochib beriladi. Alla aytilmagan birinchi va ikkinchi bolaning nobud bo‘lishi, uchinchi bolaning esa onasi “yig‘imi, o‘tinchga o‘xshash bir ovoz bilan alla ayta boshlagandan” so‘nggina tuzalib ketishi folklordagi “so‘z bilan davolash” (duoxonlik, kina) motivining zamonaviy psixologik talqinidir.

Shoir bu o‘rinda xalqning qadimiy ishonchini tasdiqlaydi: bola faqat ona suti bilan emas, balki ona tilining ohangi (alla) bilan ham oziqlanishi, ruhan ulg‘ayishi kerak.

Omon Matjon asarda Xorazm folklori va etnografiyasiga xos noyob detallarni mahorat bilan qo‘llaydi. Xorazm vohasining o‘ziga xos folklor hodisalaridan biri xalfachilik san‘atidir. O‘zbek folklorshunosligida H. Abdullayev, S. Ro‘zimboyev va N. Sobirova kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan ushbu yo‘nalish Omon Matjonning liro-epik asarlarida, xususan, “Alla”sida yangicha badiiy talqinga ega bo‘lgan.

Xalfachilik – ayollar orasida shakllangan, ham badiiy ijod (she‘riyat), ham musiqiy ijrochilik san‘ati bo‘lib, u Xorazm ma‘naviy hayotida muhim o‘rin tutadi. N. Sobirovaning ta‘kidlashicha, “Xalfachilikning dastlabki bosqichi ibodat va marosimlar bilan qorishiq holda yoddan o‘qish tarzida shakllangan. Qo‘shiq, she‘riyat va raqs bilan sinkretik tarzda birlashgan bu san‘at asrlar osha takomillashib kelgan. Hozirgi ma‘lumotlarga qaraganda XIX asrning o‘rtalaridan boshlab, xalfalar repertuariga dunyoviy dostonlar kirib kela boshlagan” [2; 34-b.].

Omon Matjon “Alla” asarida aynan shu xususiyatni – xalfalarning ayollar ruhiyati tarjimoni ekanligini ustalik bilan tasvirlaydi. Asardagi Xalfa kampir obrazi shunchaki epizodik personaj emas, balki millatning fojiali tarixi va dardini kuylovchi ramziy siymodir.

Asar syujetida Roziya bolalik xotiralarini eslar ekan, ko‘z oldiga xalfalarning davrasi keladi: “Kechqurun esa ular... qandaydir marosimda xalfa kampirning sirli lahjasini – yarim qo‘shiq, yarim so‘z – aytimlarini tinglab o‘tirishadi. Xotinlar... chayqalib, ko‘zlari yoshlanib tinglashadi”. Bu o‘rinda shoir xalfachilikning ikki muhim jihatiga e‘tibor qaratadi: xalfalar ijrosidagi matn (aytim) oddiy so‘zlashuvdan farq qiluvchi, ta‘sirchan va ritmik tuzilishga ega; tinglovchilarning yig‘lashi – bu ruhiy poklanish jarayonidir. Omon Matjon “Alla” qissasida xalfa tilidan quyidagi misralarni keltiradi:

“Man o‘lsam, ey jami‘i mahrami roz,  
Mani o‘zga o‘lukdek qilmang e‘zoz.  
Ko‘zingizdan chiqarmang qatrai yosh,  
Jonazam orqasidan otingiz tosh...”

Bir qarashda bu misralar xalqona motam qo‘shig‘i yoki xalfalarning badihasidek tuyuladi. Ammo bu satrlar aslida XVIII asr tasavvuf adabiyotining yirik vakili So‘fi Olloyorning mashhur “Sabotul-ojiziyn” asaridan olingan. Asl manbada bu baytlar quyidagicha keladi:

Man o‘lsam, ey jami‘i mahrami roz,  
Mani o‘zga o‘lukdek qilmang e‘zoz.

Xasu xor ustiga tashlab tuting xor,  
Qiling mandek baxoyim jismidin or [3; 86-b.].

XX asrning 70-yillarida – hukmron sho‘ro mafkurasi diniy-tasavvufiy adabiyotni taqiqlagan, So‘fi Olloyor ijodini “reaksion” deb e‘lon qilgan bir davrda Omon Matjonning bu misralarni asar matniga singdirishi ulkan adabiy va fuqarolik jasorati edi. Shoir senzura to‘siqlaridan o‘tish uchun noyob “folklor niqobi” (mistifikatsiya) usulini qo‘llaydi, ya‘ni taqiqlangan tasavvufiy matnni “xalq ijodi”, “xalfa kampirning aytimi” sifatida taqdim etib, uni keng kitobxonlar ommasiga yetkazadi. Bu holat o‘zbek adabiyotida yakka hodisa emas. Omon Matjonning bu jasoratini Asqad Muxtorning “Chinor” romanidagi matonati bilan qiyoslash o‘rinlidir. Ma‘lumki, Asqad Muxtor ham o‘z romanida Ahmad Yassaviyning hikmatlarini xalqona rivoyatlar va qahramon (Lev Tolstoy bilan uchrashgan Abdulahad) tiliga ko‘chirish orqali sho‘ro senzurasini chetlab o‘tgan va milliy merosni asrab qolishga erishgan edi.

Ushbu to‘rtlik Xorazm xalfalari repertuaridagi munojot yoki vido yo‘nalishidagi asarlarga xos bo‘lib, unda insonning o‘tkinchi dunyodan roziligi va yaqinlariga vasiyati aks etgan. S. Ro‘zimboyev yozganidek: “Xalfalar repertuaridagi motam qo‘shiqlari va munojotlar tinglovchini chuqur falsafiy mushohadaga chorlaydi” [4; 21-b.].

Omon Matjon xalfachilik an‘analarini zamonaviy liro-epik tasvirga olib kirish orqali quyidagi badiiy maqsadlarga erishadi, ya‘ni asar voqealari aynan Xorazmda (Gurlanda) kechayotganini ishonchli tasvirlaydi; qahramon (Roziya)ning ichki kechinmalari va Vatan sog‘inchini xalqona ohanglar orqali kuchaytiradi; xalfalarning aytimlari orqali o‘tmishdagi avlodlarning dardi va hikmatini bugungi kunga yetkazadi; “Osmonga qarasam oynning bolasi, Orqamga qarasam Gurlan qal‘asi...” kabi xalqona to‘rtliklar asarning milliy ruhini oshiradi; Xizreliyopning loyqa-bo‘tana suvi, qirq quloqli qozon, qizil sholi oqlash kabi tasvirlar Xorazm vohasining realistik manzarasini yaratadi.

Asarning kulminatsiyasi – Roziyaning alla aytayotganda to‘satdan o‘z bolaligini, onasini va Vatanini eslab qolishidir. “Allani beixtiyor katta yoshdagi odam eshitib qolsa... xotirida o‘chib borayozgan taassurotlar... bolaligi esiga tushadi”. Bu o‘rinda “Alla” – xotirani uyg‘otuvchi trigger (qo‘zg‘atuvchi kuch) vazifasini bajaradi. Roziyaning boy-badavlat hayoti, begona yurtdagi farovonligi alla sadosi oldida o‘z qadrini yo‘qotadi. U endi jisman ozod bo‘lsa-da, ruhan Vatanga bog‘langan “asira”ga aylanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Karimova F.S. Ingliz va o‘zbek tillarida allalarning ma‘naviy-uslubiy va lingvomadaniy xususiyatlari: filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. — Urganch, 2022. — B. 7.
2. Haqqush qichqirig‘i. — Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1979.
3. Sobirova N. Xorazm halfachilik san‘ati (genezisi, badiiyati va ijrochilik an‘analari): filol. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. — Toshkent, 2021. — B. 34.
4. “Risolai aziza” — “Sabotul ojiziyn” sharhi / tuzuvchi: B. Hasan. — Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2000. — B. 86.
5. Ro‘zimboyev S. Xorazm dostonlari. — Toshkent: Fan, 1985. — B. 21.